

6-SINF MUSIQA FANIDAN I CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Mumtoz musiqa tushunchasini izohlang va uning xalq musiqasidan farqli jihatlarini tahlil qiling.
2. Mumtoz musiqa nima uchun kasbiy musiqa deb yuritilishini tushuntiring.
3. Mumtoz kuy va mumtoz ashula o'rtasidagi asosiy farqlarni yozing.
4. I chorakda o'rganilgan hududiy mumtoz yo'nalishlarni sanab, ularning o'ziga xos tomonlarini ayting.
5. Mumtoz kuylar asosan qaysi cholg'ularda ijro etiladi? Misollar bilan tushuntiring.
6. "Jonon", "Munojot", "Rohat" kabi kuylarning mumtoz musiqadagirini izohlang.
7. Mumtoz ashula nima uchun yirik shakldagi asar hisoblanadi?
8. Mumtoz ashulalarning avjli va keng qamrovli bo'lishi nimani anglatadi?
9. Shashmaqom tushunchasini izohlang va uning tarixiy shakllanishini ayting.
10. Shashmaqom tarkibidagi asosiy maqomlar nomlarini yozing.
11. "Tasnifi Buzruk" namunasi orqali maqomning qanday xususiyatlarini bilish mumkin?
12. Farg'ona–Toshkent mumtoz musiqasining katta ashula janri nimasi bilan ajralib turadi?
13. Patnisaki ashula nima? Uni katta ashuladan farqlang.
14. Xorazm mumtoz musiqasida maqom va dostonchilik yo'llarining o'rni qanday?
15. Xorazm dostonchilik san'ati ijrochiligida qaysi cholg'ular ko'proq qo'llanadi?
16. Surxondaryo–Qashqadaryo mumtoz musiqasi dostonchilik bilan qanday bog'liq?
17. Bu vohada doston ijrochisining o'ziga xos uslubi nimada ko'rinadi?
18. Mumtoz musiqaning madaniyatimizdagi o'rni haqidagi fikringizni asoslang.
19. Mumtoz musiqa insonning ma'naviy tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
20. Mumtoz musiqa va milliy an'ana o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
21. Mumtoz musiqani ijro etish uchun qanday malaka va savodxonlik kerak bo'ladi?
22. Maqom ansambllari haqida nimalarni bilasiz? Misollar keltiring.
23. Mumtoz musiqaning bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini izohlang.
24. I chorak mavzulari asosida mumtoz musiqa bilan bog'liq xulosa chiqaring.
25. Mumtoz musiqa nega milliy merosimizning muhim qismi hisoblanadi?

6-SINF MUSIQA FANIDAN I CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Mumtoz musiqa atamasining mazmunini tushuntiring va uni amaliyotda qanday tasavvur qilishingizni yozing.
2. Mumtoz musiqaning yirik shakldagi kuy va ashulalardan tarkib topishini izohlang.
3. Mumtoz kuylarni xalq kuylaridan ajratib turuvchi belgilarni yozing.
4. Mumtoz ashula ijrochilarini nega hofiz deb atashlarini tushuntiring.
5. Mumtoz ashula namunalari orasidan bilganlaringizni sanab bering.
6. Shashmaqomning olti maqomi nomlarini yozib, ulardan birini tavsiflang.
7. Shashmaqomning Buxoroda shakllanishi haqidagi ma'lumotlarni yozing.
8. Maqom ijrochiligida ansamblning o'rnini nimada?
9. Farg'ona–Toshkent vohasi mumtoz musiqasining serjiloligi va jo'shqinligini qanday tushunasiz?
10. Katta ashula janrida ijrochidan qanday ovoz va uslub talab qilinadi?
11. Xorazm mumtoz musiqasining asosiy cholg'ularini sanab bering.
12. "Suvora" va "Feruz" kabi namunalar Xorazm uslubining qaysi jihatini ko'rsatadi?
13. Xorazm dostonchilik san'atida baxshi va ansambl ijrosi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
14. Surxondaryo–Qashqadaryo dostonchilik uslubi nima uchun alohida ahamiyatga ega?
15. Bu hududda qaysi tarixiy dostonlar keng tarqalganini yozing.
16. Mumtoz musiqaning madaniyatimizdagi o'rnini Zamira Suyunova haqidagi matn asosida izohlang.
17. Mumtoz musiqani o'rganish yosh avlod uchun nega zarur deb o'ylaysiz?
18. Mumtoz musiqa ijodkorlari o'z xalqining o'tmishiga qanday munosabat bildirgan?
19. Mumtoz musiqa va adabiyot o'rtasidagi aloqani misollar bilan tushuntiring.
20. Mumtoz asarlarda g'azal va she'r matnlarining ishlatilishi nimani bildiradi?
21. Mumtoz musiqada ustoz-shogird an'anasi qanday rol o'ynaydi?
22. I chorakda tinglangan mumtoz kuy va ashulalardan biri sizga ko'proq yoqqan bo'lsa, sababini yozing.
23. Mumtoz musiqa nima uchun qalbni tarbiyalaydigan san'at turi hisoblanadi?
24. I chorak mavzulari bo'yicha umumiy taqqoslovchi xulosa yozing.
25. Mumtoz musiqa kelajak avlodga qanday ma'naviy boylik qoldiradi?

6-SINF MUSIQA FANIDAN II CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. O‘zbek zamonaviy musiqasi tushunchasini izohlang va uning mumtoz musiqadan farqini ayting.
2. Zamonaviy musiqa qanday tarixiy va ijtimoiy sharoitda shakllangan?
3. O‘zbek zamonaviy musiqasida qaysi kompozitor va bastakorlar ijodi muhim o‘rin tutadi?
4. “O‘zbekimdan aylanay” qo‘shig‘ining mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
5. Intervallar musiqiy savodda nima uchun zarur? Misol bilan tushuntiring.
6. Folklor musiqasi tushunchasini izohlang va uning asosiy janrlarini sanang.
7. Dostonchilik san‘ati folklor musiqasi bilan qanday bog‘liq?
8. Folklor ansambli ijrosining o‘ziga xos jihatlari nimada?
9. “O‘zbekiston jannat” qo‘shig‘i orqali qanday g‘oya ifodalangan?
10. Folklor qo‘shiqlarining marosim va mehnat bilan bog‘liq turlarini sanab bering.
11. Bolalar folklor qo‘shiqlarining o‘ziga xos belgilarini ayting.
12. Estrada musiqasi nima? Uning o‘zbek musiqasidagi shakllanish jarayonini tushuntiring.
13. Botir Zokirov ijodining o‘zbek estrada san‘atidagi ahamiyatini yozing.
14. “Yalla” guruhi o‘zbek estrada san‘atiga qanday yangilik olib kirgan?
15. Estrada janrlarini farqlashda qaysi belgilar muhim hisoblanadi?
16. “O‘zbekiston – abadiy bahorim” qo‘shig‘ining g‘oyaviy mazmunini izohlang.
17. Musiqa san‘ati ko‘rik-tanlov va festivallari nima uchun tashkil etiladi?
18. “Sharq taronalari” kabi festivallarning madaniy ahamiyatini tushuntiring.
19. Ko‘rik-tanlovlar yosh ijrochilar tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
20. Zamonaviy musiqa bilan folklor musiqasi o‘rtasidagi umumiy va farqli tomonlarni yozing.
21. II chorak mavzularida qaysi mavzu sizga dolzarbroq tuyuldi? Sababini yozing.
22. Zamonaviy musiqa rivojida ommaviy axborot vositalarining o‘rni qanday?
23. Estrada qo‘shiqlarida milliylik va zamonaviylik qanday uyg‘unlashadi?
24. II chorak bo‘yicha umumiy xulosa yozing.
25. Zamonaviy musiqa yoshlarning estetik didini shakllantirishda qanday rol o‘ynaydi?

6-SINF MUSIQA FANIDAN II CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. O'zbek zamonaviy musiqasi deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.
2. Zamonaviy musiqqa faqat ko'p ovoqli musiqqa emasligini qanday izohlaysiz?
3. Zamonaviy uslubda ijod qilgan bolalar kompozitorlari kimlar? Bilganlaringizni yozing.
4. "Moziydan sado" poema-fantaziyasi nomidan qanday mazmun anglash mumkin?
5. Intervallar tushunchasi kuy yaratish va kuylashda qanday yordam beradi?
6. Folklor musiqasi milliy urf-odatlar bilan qanday bog'liq?
7. Dostonchilik san'ati xalq hayotidagi qanday voqealarni aks ettiradi?
8. Qahramonlik va tarixiy dostonlarga misollar keltiring.
9. Folklor ansambli ijrosidagi kuylar nimasi bilan ajralib turadi?
10. "O'zbekiston jannat" qo'shig'ida Vatan obrazi qanday tasvirlangan?
11. Estrada so'zining ma'nosi nima va u musiqaga qanday kirib kelgan?
12. Botir Zokirovni o'zbek estrada musiqasining asoschisi deyishiga sabab nima?
13. "Yalla" guruhining mashhur qo'shiqlaridan bilganlaringizni yozing.
14. Estrada musiqasida rok, pop va rep yo'nalishlari haqida nimalarni bilasiz?
15. O'zbek estrada san'atida milliy an'analar qanday saqlanib qolgan?
16. Musiqqa san'ati ko'rik-tanlovlari va festivallarida qanday maqsad ko'zlanadi?
17. "Sharq taronalari" festivalining xalqaro nufuzi nimada?
18. Ko'rik-tanlovlar musiqiy iste'dodlarni kashf etishda qanday rol o'ynaydi?
19. Folklor va estrada musiqasi tinglovchiga turlicha qanday ta'sir ko'rsatadi?
20. II chorakda o'rganilgan qo'shiqlardan birini tanlab, uning mazmunini sharhlang.
21. Zamonaviy musiqqa bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi aloqani tushuntiring.
22. Estrada musiqasini baholashda ijro, uslub va mazmunning ahamiyati nimada?
23. II chorak mavzularini bir-biri bilan bog'lab umumiy fikr yozing.
24. Zamonaviy musiqqa yoshlar dunyoqarashiga qanday ta'sir qiladi deb o'ylaysiz?
25. II chorak bo'yicha umumlashtiruvchi xulosa yozing.

6-SINF MUSIQA FANIDAN III CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Sharq xalqlari mumtoz musiqasi deganda nimani tushunasiz?
2. "Sharq taronalari" festivali qanday maqsadda tashkil etilganini tushuntiring.
3. Festivalda qaysi mamlatlarning musiqa namunalari namoyish etilishini yozing.
4. Turk xalq musiqasi o'zbek musiqasi bilan qaysi jihatlarda o'xshash?
5. Ozarbayjon xalq musiqasining o'ziga xos tomonlarini izohlang.
6. Turk va ozarbayjon xalq cholg'ularidan qaysilarini bilasiz? Sanab bering.
7. Turkman xalq mumtoz musiqasida dostonchilikning o'rni qanday?
8. Turkman musiqasining asosiy cholg'ulari qaysilar? Ularni yozing.
9. Eron mumtoz musiqasining tarixiy ildizlari haqida nimalarni bilasiz?
10. Arab xalqlari mumtoz musiqasining o'ziga xos janr va cholg'ularini ayting.
11. Xitoy xalq musiqasining qadimiyligi va pentatonika bilan bog'liqligini tushuntiring.
12. Uyg'ur xalq musiqasi qaysi hududlarda shakllangan va qanday janrlarga boy?
13. Yapon teatrining "Noo", "Bugaku" va "Kabuki" turlari o'rtasidagi farqni yozing.
14. Hind musiqasida raga tushunchasi nimani anglatadi?
15. Qozoq xalq musiqasi nima uchun qirg'iz xalq musiqasiga yaqin deyiladi?
16. Qirg'iz xalq musiqasidagi aytishuv va dostonchilik haqida gapirib bering.
17. Sharq xalqlarining kasbiy musiqasidagi o'xshashliklarni sanab o'ting.
18. Maqom va muqom atamalarining o'zaro aloqasini tushuntiring.
19. Sharq xalqlari musiqasida cholg'u nomlarining o'xshashligi nimani bildiradi?
20. III chorakda o'rganilgan sharq xalqlari orasida qaysi biri sizni ko'proq qiziqtirdi? Sababini yozing.
21. Sharq musiqasi va xalq an'analari o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
22. Sharq xalqlari musiqasida diniy, marosimiy va maishiy unsurlar qanday aks etadi?
23. Sharq musiqasining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring.
24. III chorak bo'yicha umumiy xulosa yozing.
25. Sharq xalqlari musiqasini o'rganish o'z milliy musiqamizni chuqurroq anglashga qanday yordam beradi?

6-SINF MUSIQA FANIDAN III CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Sharq taronalari festivalining vazifasi va mohiyatini tushuntiring.
2. D.Omonullayeva bastalagan “Sharq taronasi” festival madhiyasi nimani ulug‘laydi?
3. Turk musiqasidagi maqom tizimi bilan o‘zbek maqomi o‘rtasidagi yaqinlikni izohlang.
4. Ozarbayjon xalq musiqa madaniyati qaysi janrlari bilan mashhur?
5. Turk va ozarbayjon xalqlarining umumiy cholg‘u asboblarini sanab bering.
6. Turkman xalq mumtoz musiqasida doston va aytim yo‘llari qanday o‘rin tutadi?
7. “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib”, “Asl va Karim” kabi dostonlar qaysi xalq musiqasi bilan bog‘liq?
8. Eron xalq musiqasida ishlatiladigan maqom nomlaridan qaysilarini bilasiz?
9. Arab musiqasida keng tarqalgan janrlar va cholg‘ularni yozing.
10. Xitoy xalq musiqasida pentatonik tovushqatorining o‘rni qanday?
11. Uyg‘ur kasbiy musiqasi nechta katta hududga ajratiladi? Bilganlaringizni yozing.
12. Yapon xalq teatrining sahna bezagi va aktyorlik uslubi nimasi bilan ajralib turadi?
13. Hind xalq musiqasida sitor, tabla va bansuri cholg‘ularining o‘rni qanday?
14. Qozoq xalq musiqasida aytishuv janri nimani anglatadi?
15. Qirg‘iz xalq musiqasida “Manas” dostoni qanday o‘rin tutadi?
16. Sharq xalqlari musiqasida qadimiylilik va zamonaviylik qanday uyg‘unlashgan?
17. Maqom, raga va nuba atamalarini taqqoslang.
18. Sharq xalqlari musiqasida marosim, urf-odat va dostonchilikning o‘rni qanday?
19. III chorak mavzulari asosida xalq musiqasi va kasbiy musiqa o‘rtasidagi aloqani tushuntiring.
20. Sharq xalqlari musiqasini o‘rganishda qaysi tarixiy omillar muhim deb o‘ylaysiz?
21. Sharq musiqasining umumiy o‘xshash jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
22. III chorakda tinglangan qo‘shiqlardan biri haqida taassurotingizni yozing.
23. Sharq xalqlari musiqasi yoshlar estetik didini shakllantirishda qanday rol o‘ynaydi?
24. III chorak bo‘yicha umumlashtiruvchi fikr yozing.
25. Sharq xalqlari musiqiy merosini asrash nima uchun muhim?

6-SINF MUSIQA FANIDAN IV CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT I

1. Yevropa mumtoz musiqasi haqida umumiy tushuncha bering.
2. Yevropa mumtoz musiqasida opera, kantata va oratoriya janrlarining farqini izohlang.
3. Balet janri qanday san'at turi va unda musiqa qanday vazifani bajaradi?
4. Simfoniya janri haqida nimalarni bilasiz? Uning tuzilishini tushuntiring.
5. Sonata janrini boshqa yirik janrlardan farqlang.
6. V.A.Motsart ijodi jahon musiqasida nima bilan mashhur?
7. L.V.Betxoven ijodining kuchli va qahramonona ruhini qanday tushunasiz?
8. Betxovenning "Elizaga" asari qaysi kayfiyatni ifodalaydi deb o'ylaysiz?
9. Kompozitor Frederik Shopen ijodining o'ziga xos tomonlarini yozing.
10. Mazurka janri nimasi bilan ajralib turadi?
11. Yevropa mumtoz musiqasida klassitsizm tushunchasini izohlang.
12. Opera va baletning o'xshash hamda farqli tomonlarini tushuntiring.
13. Kantata nega yirik vokal-simfonik janr hisoblanadi?
14. Oratoriya janrining opera bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?
15. Xor, ariya, ansambl va orkestrning opera ichidagi o'rnini ayting.
16. Simfoniyaning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.
17. Motsart va Betxoven ijodini taqqoslang.
18. Yevropa mumtoz musiqasi o'zbek musiqasiga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?
19. IV chorakda tinglangan asarlardan biri haqida fikringizni yozing.
20. Mumtoz Yevropa musiqasining bugungi kunda ham qadrlanishi sabablarini tushuntiring.
21. Organ musiqasi nima va u qaysi kompozitorlar ijodida rivoj topgan?
22. Baletda raqs, harakat va musiqaning uyg'unlashuvi nimani beradi?
23. IV chorak mavzulari asosida yevropa musiqiy janrlarining ahamiyatini yozing.
24. IV chorak bo'yicha umumiy xulosa yozing.
25. Yevropa mumtoz musiqasini o'rganish sizning musiqiy didingizni qanday boyitadi?

6-SINF MUSIQA FANIDAN IV CHORAK NAZORAT ISHI

VARIANT II

1. Yevropa mumtoz musiqasi qanday tarixiy jarayonlar natijasida yuksalganini tushuntiring.
2. Opera janrining eng muhim belgilarini yozing.
3. Kantata va oratoriyaning o'xshashligini ayting va keyin farqini ko'rsating.
4. Balet so'zining ma'nosi nima va u qanday janrni bildiradi?
5. Simfoniya janrida nega yirik orkestr muhim o'rin tutadi?
6. V.A.Motsartning musiqiy merosi haqida bilganlaringizni yozing.
7. Betxovenning qaysi asarlari uni dunyoga mashhur qilgan deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.
8. "Qahramonlik" simfoniyasi nomidan qanday mazmun anglash mumkin?
9. Shopenning fortepiano musiqasidagi o'rni qanday?
10. Mazurka orqali qaysi milliy ruh ifodalanadi?
11. Yevropa mumtoz musiqasida sonata, prelyudiya va kvartet janrlari haqida gapirib bering.
12. Balet va opera tomoshasida tomoshabin qaysi unsurlarni birgalikda kuzatadi?
13. Ariya nima va u opera ichida qanday vazifani bajaradi?
14. Xorli asarlar yevropa mumtoz musiqasida qanday ahamiyatga ega?
15. Simfoniya tinglashda asarning qaysi tomonlariga e'tibor berish kerak?
16. Motsart va Betxoven ijodidagi kayfiyat farqlarini yozing.
17. Yevropa mumtoz musiqasi va sharq mumtoz musiqasini qisqacha taqqoslang.
18. "Kim epchilu, kim chaqqon" kabi qo'shiqlar bilan yevropa mumtoz asarlari o'rtasidagi farqni tushuntiring.
19. IV chorakda o'rganilgan yevropa kompozitorlaridan qaysi biri sizga ko'proq qiziq tuyuldi? Sababini yozing.
20. Klassik musiqa nima uchun asrlar davomida qadrlanib kelmoqda?
21. Yevropa mumtoz musiqasidagi ko'p ovozlilikning ahamiyati nimada?
22. Opera va oratoriyani sahna bilan bog'liqligi jihatidan taqqoslang.
23. IV chorak mavzulari asosida yevropa musiqasining asosiy janrlarini umumlashtiring.
24. IV chorak bo'yicha umumlashtiruvchi xulosa yozing.
25. Yevropa mumtoz musiqasini o'rganish kelajakdagi musiqiy savodingizga qanday yordam beradi?